

**YOSHLAR TAFAKKURIDA HARBIY QAHRAMONLIK IDEALLARINI SHAKLLANTIRISHDA
TA'LIM-TARBIYANING ISTIQBOLDAGI VAZIFALARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13936828>

Pulatov Baxodir Abduraupovich

Farg'ona davlat universiteti

Harbiy ta'lim fakulteti

Maxsus tayyorgarlik sikli boshlig'i

Qodirov Samandar Bobir o'g'li

Harbiy ta'lim fakulteti kursanti

Annotatsiya: *Ushbu maqola yoshlar tafakkurida harbiy qahramonlik ideallarini shakllantirishda ta'lim-tarbiyaning istiqboldagi vazifalari Hozirgi muommolariga boy davrda yoshlarda yuksak insoniylikka asoslangan chinakam jangavorlik tuyg'ularini shakllantirishning ob'ektiv shart-sharoitlari to'g'risida yanada chuqurroq o'ylash taktik va strategik maqsadlarimiz haqida yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Vatanparvarlik, ta'lim-tarbiya, vazifalar, jangovor, tafakkur.*

Bugungi kunda dunyoda «tinchlik» degan so'z va, «osoyishtalik» degan tushuncha g'oyat omonat bo'lib qolganiga, bu borada kechagi vaziyat, kechagi tahlil va prognozlar bugunga to'g'ri kelmayotgani jamiyatda jangavorlik ruhini rivojlantirish zaruratga aylantirmoqda. Shu munosabat bilan yoshlar tafakkurida harbiy qahramonlik ideallarini shakllantirishning ta'limni tizimli tashkil etish, bu ishlarni faollashtirish va yuksak darajaga ko'tarish talab etiladi. Demak, o'zligini anglagan, tarixiy xotirasi butun, mustaqil fikrlaydigan inson o'z vataniga sotqinlik qilmaydi, balki vatan manfaatini hamma narsadan ulug' tutib, uning uchun jon berishga tayyor harbiylarda jangavorlik sifatlari yuqori bo'ladi. Bu esa chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarida vatan himoyasi chindan ham vazifa, balki sharaflı burchga aylanib borishiidan yaqqol daolat beradi.

Hozirgi muommolariga boy davrda yoshlarda yuksak insoniylikka asoslangan chinakam jangavorlik tuyg'ularini shakllantirishning ob'ektiv shart-sharoitlari to'g'risida yanada chuqurroq o'ylash taktik va strategik maqsadlarimiz sirasiga kiradi. Jangavorlik ruhiyati harbiydan sabrli, chidamli, qat'iyatli, matonatli, jasurlik va mardlik fazilatlariga ega bo'lishni shart qilib qo'yish orqali u mohiyatan insonning kundalik mayda tashvishlardan ulug'vorlikka olib chiqadi. Ya'ni talaba o'zining jangavorlik характери orqali xudbinona vatanni sevishdan, vatan odidagi axloqiy burchini anglashga o'tadi, ulg'ayadi. Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarida jangavorlik ruhiyatini rivojlantirish orqali ijtimoiy dunyoqarashda milliy g'urur, or-nomus kabi axloqiy me'yorlar mustahkamlanadi. Mamlakatni asrab-avaylash, uning shuhratini dunyoga tarannum etish bilan bog'liq eng muhim tushunchalar, hayotiy va professional ko'nikmalarni ilm-ma'rifat asosida

chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalari qalbi va ongiga isingdirish orqali O'zbekistonning sadoqatli fuqarolarini tarbiyalash davlatimizning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Mamlakatning barqarorligi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, harbiy, madaniy, axloqiy, maishiy, texnologik, axborot kabi omillarning o'zaro bog'liqligi va mavjudligi asosida shakllanadi. Bular, birinchi galda, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy muammolarini echish va maqsad sari yo'naltirishga qaratilgandir. Mazkur tizimning shakllanishi ikkilamchi dialektik jarayon bo'lib, unda murakkablik, kengqamrovlilik va ziddiyat kabi qonuniyatlar o'z ifodasini topgan. Barqarorlik tizimi tashkiliy jihatdan tabiiy integrasiyaga tayanib, fuqarolik jamiyati va davlatning tinchligi yuzasidan maqsadli yo'naltirilgan usul va vositalar asosida muammolarni o'zaro manfaatdorlikda echishga qaratilgandir. Bunda Qurolli Kuchlarning tutgan o'rni alohida ahamiyatga molikdir. Chunki uning asosiy vazifasi mamlakatning hududiy yaxlitligi va barqarorligini ta'minlashga qaratilgan. Shuning uchun, etuk harbiy xizmatchi shaxsini tarbiyalash muhim vazifalardan hisoblanadiki, bu bevosita harbiy ta'lim-tarbiya jarayoni bilan bog'liqdir. Garchi harbiy texnika va qurol-yaroqlar asosiy himoya vositasi bo'lib xizmat qilsa-da, bizga yaxshi ma'lumki, har qanday mukammal harbiy texnika yoki qurol-aslahalarning mavjudligiga qaramasdan, ularni boshqarish uchun harbiy xizmatchilar shaxsi, jangavorlik sifatleri, taktik imkoniyatlari asosiy o'rinda turadi, ya'ni inson omili hal qiluvchi asos bo'lib xizmat qiladi. Buning uchun harbiy xizmatchilarning professional tayyorgarlik darajasiga alohida e'tibor qaratish lozim. Mazkur masala, o'ziga xos harbiy-siyosiy ahamiyatga molik, strategik xarakterdagi vazifalardan biri hisoblanib, etuk harbiy xizmatchilarni amaliyot uchun tayyorlash, ularga zamon talablari darajasida fan va texnikaning yutuqlaridan mukammal foydalangan holda ta'lim-tarbiya berishni taqozo etadi. Vatan himoyachiligini o'zi uchun kasb sifatida tanlaganlarning harbiy tayyorgarligi hamda kasbiy tarbiyasiga ilmiy nuqtai nazar asosida yondashish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga molik masala hisoblanadi. Qobiliyatlarni shakllantirish va rivojlantirishda o'qitish-tarbiyalash alohida ahamiyatga ega. Ta'lim-tarbiya jarayonida qobiliyat darajasini yuqoriroq rivojlanish darajasiga o'tkazish uchun eng oqilona sharoitlar yaratish mumkin. Buning uchun, birinchidan, yoshlar tafakkurida harbiy qahramonlik ideallarini shakllantirish, ilmiy uslublar yordamida tizimli tahlil qilishga o'rgatish kerak, ikkinchidan ilmiy-ijodiy faoliyatiga qiziqtirish zarur, uchinchidan o'quv va ijtimoiy vazifalarni hal etishda ko'proq faollik va mustaqillik ko'rsatishlari uchun ularga imkoniyat berish lozim.

Harbiy talim-tarbiya tizimida yoshlarning jismoniy tayyorgarligini mustahkamlash, jangavorlik ruhiyatini oshirish va taktik tayyorgarlikni rivojlantirishga alohida urg'u berilishi kerak. Chunki harbiylik faoliyatining mazmuni va maqsadi mana shu ko'rsatkichning shakllanganlik darajasi asosida tarkib topadi. Shu sababli, harbiy xizmatchilarni jismoniy tayyorgarligini oshirish ta'lim-tarbiya ishi bo'yicha mas'ullar, ofiserlar oldida turgan ulug'vor, mas'uliyatli vazifa bo'lib qolmoqda. Bugungi kunda, harbiy xizmatchilar o'rtasida jismoniy tayyorgarlik ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ularda ilmiy izlanish, huquqiy

savodxonlik, burch va mas'uliyatni chuqur his qilish, poklik, halollik, fidoyilik, mehnatsevarlik, ijodiy tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, iymon, insof, diyonat, millatparvarlik, insonparvarlik, haqiqatgo'ylik, sadoqatlilik, shijoat, botirlik singari fazilatlarni shakllantirish lozim. Shuning uchun, harbiy-ma'rifiy yo'nalishda o'tkazilajak mashg'ulotlarda va tadbirlarda ilmiy pedagogika va psixologiya faning yutuqlariga tayangan holda treninglar, ta'limiy suhbat va uchrashuvlar, kechalar va ilmiy-amaliy konferensiyalar o'tkazish tavsiya etiladi.

Quyidagilar yoshlar tafakkurida harbiy qahramonlik ideallarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayonning asosiy vazifalari hisoblanadi:

-yoshlarni milliy rivojlanish strategiyaga va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharaflari va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish;

-qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, vatan mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo'lgan ishonchni kuchaytirish;

-milliy armiyamizga jismonan baquvvat va ma'nan etuk kadrlar zarurligi, harbiy xizmat har bir O'zbekiston fuqarosi uchun muqaddas burch ekani haqidagi tushunchani hamda bu boradagi nazariy-amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash; yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko'nikmalarini, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi turishda keng dunyoqarashni shakllantirish; har qanday murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil qaror qabul qilish, zamonaviy harbiy-texnika vositalaridan samarali foydalanish malakasiga, jangavorlik ruhiyatiga va taktik tayyorgarlik ko'nikmalariga ega harbiylarni tarbiyalash; O'zbekiston manfaatlarini nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoyi bo'lish — bu bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta'sirchan vositalar orqali singdirib borish.

Tarbiya oldida turgan asosiy maqsad o'sib kelayotgan avlod ongida keksa avlod dono tajribasini singdirish, insoniy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirish, Vatan va millat oldidagi burch va mas'uliyatni his qilishga o'rgatish, qonunlarga rioya etish fazilatlarini qaror toptirishdan iboratdir. Chunki Vatanga sodiqlik, vatanparvarlik o'zining qudratli ildizlari bilan oila, avlod-ajdodlarning or-nomusiga chuqur ehtirom bilan qarashga, insonning o'z vijdoni va burchiga sodiqlik borib taqaladi. O'zbek xalqining yuksak milliy qadriyatlari vatanparvarlik, milliy g'ururni ma'naviy yuksaltirish jamiyat ravnaqi yo'lidagi qiyinchiliklarni engib o'tishda yordam beradi.

Qahramonlik ideallarni shakllantirishning muhimligi mamlakatimiz xavfsizligi, mudofaa quvvatini mustahkamlash, fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash zaruriyati bilan ham belgilanadi. Shu sababli, yosh harbiy xizmatchilarni qahramonlik ideallari asosida tarbiyalash ta'lim-tarbiya ishlari oldida turgan ulug'vor, mas'uliyatli vazifa bo'lib qolmoqda. Mustaqil davlatimizning bugungi bosh vazifalaridan biri — yurtim, elim deb kuyib, yonib yashaydigan vatanparvar komil insonni tarbiyalashdir. Vatanparvarlik tarbiyasini

shakllantirish va takomilashtirish insonning tug'ilishidan to umrining oxirigacha davom etadigan jarayondir. Chunki vatanparvarlik tarbiyasi, avvalo, oiladan boshlanadi. Bunda ota-ona o'z farzandlariga ajdodlarimiz tarixi, ularning qahramonligi, jamiyatdagi obro'-e'tibori haqida hissiyot bilan gapirib bermog'i, shu asosida yosh avlodda Vatan tuyg'usini uyg'otmog'i kerak. Haqiqiy sevish, vatanparvarlik – shu ulug' Vatanni sevish, xalq uchun xizmat qilish, jonini fido etishdir. Qaerda bo'lsa ham Vatan, xalq manfaatlari uchun fidokorona kurashuvchi kishigina haqiqiy vatanparvardir. Haqiqiy vatanparvar inson takabburlikka, faqat o'z manfaatini o'ylovchi shaxs bo'lishga mutlaqo yo'l qo'ymaydi va xalqidan o'z manfaatini ustun tutmaydi, hamma vaqt xalq bilan bir jon, bir tan bo'ladi. Agar harbiy xizmatchilar o'z ona Vatanini sevmasa, unga sadoqat bilan qaramasa, haqiqiy barkamol inson bo'la olmaydi. Insoniylikning eng muhim fazilati ham vatanparvarlikdir.

G'oyaviy to'qnashuvlarni olib borishdan maqsadlar turlicha, bu faqatgina g'oyaviy kurash mahsulotini tayyorlagan va qo'llayotganga ma'lum. Ammo, ularning zamirida iqtisodiy va siyosiy hamda harbiy maqsadlar mavjudligi aniqdir. Harbiy xizmatchilarimiz ongiga ofiserlarimiz tomonidan bu masala, ya'ni g'oyaviy kurashlarning salbiy va buzg'unchilik tomonlari aniq va misollar asosida tushuntirib berilsa, bizning Qurolli Kuchlarimiz uchun g'oyaviy hujumlarning ta'siri o'z kuchini yo'qotib, askarlarimiz yuksak jasorat ko'rsatib, o'z burchlarini sharaf bilan bajara oladilar. Shu o'rinda ta'kidlab o'tishni lozim deb hisoblardikki, armiya yoshlarni tarbiyalash bilan bir qatorda, ularni ham jismonan, ham ruhan chiniqtiradi hamda ota-onaga, oilaga bo'lgan mehr-muhabbatini uyg'otadi. Xulosa qilganda, yurtimizda professional armiyani shakllantirishga katta e'tibor qaratilayotgan ekan, ushbu soha mutaxassislariga qo'yilayotgan talablar ham ortib bormoqda. Ham jismonan, ham ruhan etuk nomzodlarni saralash, ularni zamon talabiga mos mutaxassislar etib shakllantirish borasida ko'p islohotlar olib borilmoqda. Avval harbiy xizmatchi bo'lish uchun deyarli hech qanday talab qo'yilmagan bo'lsa, bugungi kunda ularning ham jismonan sog'lomligi, ham savodliligi, qolaversa, harbiy mutaxassislik va ixtisosliklar uchun zaruriy o'rta va o'rta-maxsus kasb-hunar ta'limida egallagan bilimlari bo'yicha saralab olinmoqda. Bu haqida yoshlarda tushuncha qanchalik ko'p shakllangan bo'lsa, ularning tayyorgarlik sifati ham ortadi va bu Qurolli kuchlarimiz harbiy xizmatchilari va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarimiz xodimlarining saviyasining ortishiga, bu sohalarning rivojiga va eng taraqqiy etgan davlatlardan qolishmaydigan armiyaga ega bo'lishimizda faqatgina ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Harbiy fakultet talabalarini harbiy xizmatga tayyorlashda axloqiy tarbiyani ahamiyati. ijodkor o'qituvchi,
2. Sattorovich, a. u. (2023). Harbiylarning kreativ sifatlarini rivojlantirishda ta'limning ahamiyati.

3. Abduraupovich, P. B. (2023). O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 203
4. Sattorovich, A. U. (2023). Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy tamoillari.
5. Mirziyoev Sh. Jismoniy va ma'naviy etuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga etishda tayanchimiz va suyanchimizdir